

Zavodni rivojlantirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi



Prezident Shavkat Mirziyoyev Urganch shahridagi "UzXCMG" qo'shma korxonasida amalga oshirilayotgan loyihalar bilan tanishdi.

Ma'lumki, ushbu korxonada 2014-yilda faoliyat boshlagan. Endilikda uni 3 bosqichda rivojlantirish rejalashtirilgan. Dastlab qishloq xo'jaligi texnikalarini yirik bo'g'inli yig'ish, ikkinchi pallada sanoat usulida yig'ish, uchinchisida esa ishlab chiqarishni mahalliyashtirish mo'ljallangan.

Shu maqsadda joriy yilda Xitoyning XCMG korporatsiyasidan 4,3 million dollarlik texnologik yig'uv liniyasi va uskunalar olib kelingan. Mazkur energiya tejamkor texnologiya mahsulot tannarxi pasayib, raqobatbardoshligi oshishiga xizmat qiladi. Import detallar o'rni to'ldirilib, mahalliyashtirish darajasi 2021-yilda 51 foizga yetkaziladi. Shuningdek, hozir bu yerda 30 kishi mehnat qilayotgan bo'lsa, kelgusida yana 60 ta ish o'rni yaratiladi.



Davlatimiz rahbari qishloq xo'jaligi mashinalari yig'uv-payvandlash uskunalarini, mahalliyashtirilgan texnika va ehtiyot qismlarni ko'zdan kechirdi.

- Bu zavodning imkoniyatlari juda katta, - dedi Shavkat Mirziyoyev. - Lekin ularni ishlatolmayapmiz. Shuning uchun bu yerda yana nimalar chiqarish mumkinligini va kelgusi yillarda chet eldan qanday texnikalar sotib olishga ehtiyoj borligini chuqur tahlil qilib, ularni shu yerga buyurtma berish, imkonsizlarini kooperatsiya asosida tayyorlash zarur. Bu zavod rivojlanib, Xorazm industriyasiga asos bo'lishi kerak.



Shu yerda Xorazm viloyatida ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari ham ko'zdan kechirildi.



Manba